XALQ DEPUTATLARI URGANCH SHAHAR KENGASHI
QARORI

2021 - yil 31 - dekabr VI-48-58-12-180-K/21 Urganch shahar hokimligi

2022-yil uchun Urganch shahar mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Budjet kodeksining 99-moddasi, xalq deputatlari Xorazm viloyat Kengashining 2021-yil 30-dekabrdagi “2022-yil uchun Xorazm viloyati mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-40-60-12-0-K/21-sonli qaroriga muvofiq hamda Xorazm viloyati hokimligining moliya bosh boshqarmasining 2021-yil 30-dekabrdagi № 02/38/33-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari Urganch shahar Kengashi

QAROR QILADI:

1. Xalq deputatlari Xorazm viloyat kengashining 2021-yil 30-dekabrdagi “2022-yil uchun Xorazm viloyati mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori ijro va rahbarlik uchun qabul qilinsin.

2. Xalq deputatlari Xorazm viloyat kengashining 2021-yil 30-dekabrdagi “2022-yil uchun Xorazm viloyati mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qaroriga (keyingi o‘rinlarda Qaror deb ataladi) muvofiq, Urganch shahar mahalliy budjetining 2022-yil uchun daromadlari 98,3 mlrd.so‘m, xarajatlari 169,8 mlrd.so‘m prognoz qilinganligi hamda respublika budjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar 71,6 mlrd.so‘m miqdorida tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. 2022-yil uchun Urganch shahar mahalliy budjeti daromadlari prognozi

1-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. 2022-yil uchun Urganch shahar mahalliy budjetidan hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari **2-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

5. 2022-yil uchun Urganch shahar mahalliy budjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar normativlari **3-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

6. 2022-yil uchun Urganch shahar mahalliy budjetining daromadlari va xarajatlarining prognozi **4-ilovaga** muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2022-yil uchun viloyat budjetidan Urganch shahar mahalliy budjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorlari **5-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

7. Bunda, tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorini tuman va shahar mahalliy budjetlari daromadlari prognozi ijrosidan qat’iy nazar kamaytirishga yo‘l qo‘yilmasligi Qonunda belgilab qo‘yilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2022-yil uchun Urganch shahar mahalliy budjeti zahira jamg‘armasi hajmlari 1,6 mlrd.so‘m miqdorida belgilansin.

8. 2022-yil uchun Urganch shahar mahalliy budjeti shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori **6-ilovaga** muvofiq belgilansin.

9. Yuridik shaxslar bo‘yicha qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer maydonlari uchun hududlar kesimida mutlaq miqdorga 1 gektarga belgilangan bazaviy soliq stavkalariga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar **7-ilovaga** muvofiq belgilansin.

10. Jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan va qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan tashqari) yer maydonlari uchun hududlar kesimida mutlaq miqdoriga 1 kv.m uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar **8-ilovaga** muvofiq belgilansin.

11. O‘zbekiston Respublikasining mazkur Qonuni bilan 2022-yilda xalq deputatlari Kengashlarini mahalliy budjetlarni boshqarishda, xususan mahalliy budjet xarajatlarini hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash

va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo‘yicha vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinsin.

12. Shuningdek, xalq deputatlari Xorazm viloyat Kengashining 2021-yil 30-dekabrdagi “2022-yil uchun Xorazm viloyati mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-40-60-12-0-K/21–sonli qaroriga muvofiq 2022-yilda quyidagi soliq turlari:

a) Urganch shahar budjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno;

qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq;

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

aylanmadan olinadigan soliq;

davlat aktivlarini foydalanishga (ijaraga) berishdan qonunchilikda belgilangan normativlar bo‘yicha olingan daromadlar.

Mobil aloqa xizmatlari, tamaki va alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo uchun aksiz solig‘i bo‘yicha tushumlar tegishincha 2021-yil 1-iyul holatiga ko‘ra tuman va shahar aholisining viloyat aholisidagi ulushiga muvofiq.

13. Urganch shahar hokimining birinchi o‘rinbosari (J.Eshchanov), Moliya bo‘limi (J.Sapayev), Davlat soliq inspeksiyasi (M.Abdalniyozov) mas’ul tashkilotlar bilan birgalikda:

tegishli budjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

mahalliy budjeti prognoz ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarish;.

budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

tegishli mahalliy budjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash;

budjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

14. Davlat soliq inspeksiyasi (M.Abdalniyozov) O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida budjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirishga;

yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rishga;

aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazishga;

bunda, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ‘ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e’tibor qaratsinlar.

Xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish vazifasi yuklatilsin.

15. Davlat soliq inspeksiyasi (M.Abdalniyozov), Kadastr agentligi Urganch shahar bo‘limi (S.Saidov) 2022-yildan boshlab yuridik shaxslar mol-mulk solig‘ini hisoblashda ko‘chmas mulklarga 1 kv.metr uchun minimal miqdorlar joriy etilganligidan kelib chiqib, shaharda mavjud soliq to‘lovchilarning mol-mulklari maydonlarini chuqur tahlil etgan holda ushbu mol-mulklarga nisbatan soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlasin.

16. Davlat soliq inspeksiyasi (M.Abdalniyozov), tegishli mutasaddi

tashkilotlar bilan birgalikda:

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlarni aniqlash bo‘yicha xatlovlar o‘tkazish;

xatlov natijalari bo‘yicha aniqlangan noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlar faoliyatini qonuniylashtirish hamda ularni soliq bazasiga qamrab olish;

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida faoliyat olib borayotgan karerlar tomonidan qazib olinayotgan noruda qurilish materiallar hajmining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

Bunda, ushbu sohada faoliyat olib borayotgan karerlarning qazib olish hajmlarini doimiy tahlil qilib borish hamda zarur hollarda qazib olish hajmlarini aniqlashda mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan “marksheydrlik” xizmatlaridan foydalanish lozimligi alohida belgilab qo‘yilsin.

17. Majburiy ijro byurosi Urganch shaxar bo‘limi (N.Sultonov), Davlat soliq inspeksiyasi (M.Abdalniyozov) bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud soliq qarzdorliklarini budjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rib borsin hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha kompleks chora-tadbirlar ko‘rish vazifasi yuklatilsin.

18. Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash bo‘limi (Q.Kenjaev) jismoniy shaxslarning yer va mol-mulk soliqlari bo‘yicha joriy hisoblangan soliqlarni hamda ushbu soliqlardan mavjud soliq qarzdorliklarini undirish yuzasidan soliq organlariga amaliy yordam ko‘rsatsin.

19. Shahar hokimining birinchi o‘rinbosari (J.Eshchanov) tegishli mutasaddi tashkilotlar bilan birgalikda:

bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlarini aniqlash bo‘yicha xatlov ishlarini samarali tashkil etish;

xatlov natijalariga ko‘ra viloyatda mavjud bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlari ro‘yxatini shakllantirish;

shakllantirilgan ro‘yxatga asosan bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlarini ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha tegishli takliflar tayyorlash;

bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlarini ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida roliklar va

video-materiallar tayyorlash;

xususiylashtirilishi mo‘ljallangan bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlarini «ye-ijro auksion» maydonchasi orqali sotish ishlarini tashkillashtirish vazifasi yuklatilsin.

20. Shahar hokimining birinchi o‘rinbosari (J.Eshchanov) tegishli mutasaddi tashkilotlar bilan birgalikda tashqi reklama ob’ektlarini to‘liq xatlovdan o‘tkazgan holda, ushbu tashqi reklama ob’ektlari bo‘yicha shartnomalar tuzish choralarini ko‘rsin hamda ushbu shartnomalar bo‘yicha yig‘imlarni budjetga to‘lanishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

21. Urganch shahar moliya bo‘limi (J.Sapayev):

budjet intizomiga qat’iy rioya etilishi ustidan doimiy monitoring ishlari kuchaytirsin;

budjet intizomini buzish holatlari bo‘yicha har oy yakuni bilan Kengashga axborot kiritib borsin;

o‘tkazilgan nazorat tadbirlari yakuni bo‘yicha kamomad va noqonuniy o‘zlashtirishga yo‘l qo‘ygan soha rahbarlarining hisoboti xar chorakda eshitib borilsin.

22. Kengashning mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi:

mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risidagi hokimlik tomonidan taqdim etilgan takliflari asosida budjet qonunchiligiga to‘liq rioya etilgan holda Kengash qaror loyihasini ishlab chiqilishiga;

Kengash qarori asosida mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag‘larni samarali va maqsadli foydalanishi ustidan nazorat o‘rnatishga va natijalari bo‘yicha tavsiyalar berishga monitoring qilishga;

Mahalliy budjet xarajatlarining qonunchilikda belgilangan qismining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilishida ishtirok etadi va ushbu mablag‘larning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirishga mas’ul etib belgilansin.

23. Urganch shahar hokimligi:

Urganch shahar mahalliy budjeti jami xarajatlarining 5 foizi hamda shakllangan qo‘shimcha mablag‘larining kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltirsin.

Bunda, Urganch shahar xalq deputatlari, shahar hokimligining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari, shahar hokimligi huzuridagi Jamoatchilik kengashlari hamda yangi joriy etilgan hokim yordamchilari budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash maqsadida aholiga keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga mas’ul etib belgilansin;

mahalliy budjetlarning qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan ob’ektlar ro‘yxati, shuningdek qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10-sanasiga qadar majburiy tartibda tegishli hokimlik rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borilsin.

24. Shahar hokimining birinchi o‘rinbosari (J.Eshchanov), tegishli muassasa va tashkilotlar bilan birgalikda:

mahalliy budjet daromad va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishi hamda soliq bazasini kengaytirish yuzasidan ko‘rilgan chora-tadbirlar;

ajratilgan budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanishi yuzasidan erishilgan natijalar bo‘yicha Kengashga bir chorakda kamida bir marotaba hisobot kiritib borsin.

25. Urganch shahar hokimligi Qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta’minlasin.

26. Mazkur qaror “Yangi Urganch” gazetasida rasmiy e’lon qilinsin hamda Urganch shahar hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

27. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

28. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish shaxar hokimining birinchi o‘rinbosari (J.Eshchanov) va xalq deputatlari Urganch shahar Kengashining Mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi

(Sh.Xalimov) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **O.Xolboyev**

Халқ депутатлари Урганч шаҳар
Кенгашининг
2021 йил 31 декабрдаги
VI-48-58-12-180-K/21-сон қарорига
1-илова

2022 ЙИЛ УЧУН УРГАНЧ ШАҲРИ БЎЙИЧА

МАҲАЛЛИЙ БЮДЖЕТ ДАРОМАДЛАРИНИНГ РЕЖА КЎРСАТКИЧЛАРИ

Даромад турлари		**минг. сўм**
1	Фойда солиғи	
2	Айланмадан олинадиган солиқ	28 390 000
3	Жисмоний шахслардан олинадиган даромад солиғи	0
4	Якка тартибдаги тадбиркорлар учун жисмоний шахслардан олинадиган даромад солиғи	5 408 000
5	Якуний истеъмолчиларга бензин, дизель ёқилғиси ва газ реализация қилишдаги акциз солиғи	0
6	Юридик шахсларнинг мол-мулкига солинадиган солиқ	0
7	Жисмоний шахсларнинг мол-мулкига солинадиган солиқ	7 456 000
8	Ер солиғи	26 149 000
9	Қурилиш материаллари бўйича ер қаъридан фойдаланганлик учун солиқ	84 000
10	Сув ресурсларидан фойдаланганлик учун солиқ	4 235 000
11	Давлат божи	
12	Жарималар	
13	Давлат унитар корхоналари дивиденд тушумлари	
14	Давлат мулки бўйича ижара тўловлари	3 137 000
15	Йиғимлар	
ЖАМИ		**74 859 000**
	Мобиль алоқа хизмати, тамаки ва алкоголь маҳсулотлари, шу жумладан пиво учун акциз солиғи тушумларидан тегишли равишда ўтказиб бериладиган даромадлар	**23 457 415**
	Алкоголь маҳсулотлари, шу жумладан пиво	8 878 381
	Мобиль алоқа хизмати	5 058 079
	Тамаки маҳсулотлари	9 520 955
ЖАМИ ДАРОМАД		**98 316 415**

Халқ депутатлари Урганч шаҳар
Кенгашининг
2021 йил 31 декабрдаги
VI-48-58-12-180-K/21-сон қарорига
2-илова

2022 йил учун Урганч шаҳар бюджетидан биринчи даражали бюджет маблағларини тақсимловчиларга ажратиладиган кенгаш ажратмаларининг чекланган миқдорлари

минг сўмда

№	Кўрсаткичлар	Шаҳар ҳокимлиги томонидан киритилган
Харажатлар миқдори, Жами		**169 877 188,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	**169 877 188,0**
	иш ҳақи, пенсия, стипендия, нафақалар миқдорларини ва айрим хизмат турлари бўйича тарифларни ошиши билан боғлиқ харажатлар (индексация харажатлари)	**21 821 513,0**
1.	**Халқ таълими бўлими**	**24 042 876,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	24 042 876,0
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	0,0
2.	**Мактабгача таълим бўлими**	**20 741 382,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	20 741 382,0
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	0,0
3.	**Тиббиёт бирлашмаси**	**43 002 747,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	43 002 747,0
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	0,0
4.	**Маданият бўлими**	**931 783,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	931 783,0
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	0,0
5.	**Жисмоний тарбия ва спорт бўлими**	**2 517 991,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	2 517 991,0
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	0,0
6.	**Ветеринария ва чорвачиликни ривожлантириш бўлими**	**943 577,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	943 577,0

	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	0,0
7.	**Молия бўлими**	**22 660 247,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	838 734,0
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
	Ижтимоий нафақалар	21 821 513,0
8.	**Ободонлаштириш бошқармаси**	**33 153 058,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	33 153 058,0
9.	**Ҳокимият**	**15 902 177,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	
	Давлат бошқарув идоралари	4 722 979,0
	Захира жамғармаси	1 602 556,0

Халқ депутатлари Урганч шаҳар Кенгашининг
2021 йил 31 декабрдаги
VI-48-58-12-180-K/21-сон қарорига
3-илова

Умумдавлат солиқларидан шаҳар маҳаллий бюджетига ажратмалар меъёри

Фоиз ҳисобида

Т/Р	Ҳудуд номи	Айланмадан олинадиган солиқ	Жисмоний шахслардан олинадиган даромад солиғи	Жисмоний шахсларга тегишли мол-мулкни ижарага беришдан оладиган йиллик даромади тўғрисидаги декларацияга асосан тўлайдиган, шунингдек якка тартибдаги тадбиркорлар тўлайдиган жисмоний шахслардан олинадиган даромад солиғи	Бензинни, дизель ёқилғисини ва газни якуний истеъмолчиларга реализация қилишдаги акциз солиғи	Юридик шахсларнинг мол-мулкига солинадиган солиқ	Жисмоний шахслардан олинадиган мол-мулк солиғи	Юридик шахслардан олинадиган ер солиғи	Жисмоний шахслардан олинадиган ер солиғи	Қурилиш материаллари бўйича ер қаъридан фойдаланганлик учун солиқ	Сув ресурсларидан фойдаланганлик учун солиқ, *бундан электр станциялари томонидан тўланадиган солиқ мустасно*	Давлат активларини фойдаланишга (ижарага) беришдан қонунчиликда белгиланган нормативлар бўйича олинган даромадлар
1	Урганч шаҳри	100		100			100	100	100	100	100	100

Халқ депутатлари Урганч шаҳар
Кенгашининг
2021 йил 31 декабрдаги
VI-48-58-12-180-K/21-сон қарорига
4-илова

Mahalliy budjetlarning 2022 yil daromadlari va xarajatlariing chegaraviy hajmi

ming so‘mda

Hudud nomi	Daromad	Xarajat
Urganch shahri	98 316 415,0	169 877 188,0

Халқ депутатлари Урганч шаҳар
Кенгашининг
2021 йил 31 декабрдаги
VI-48-58-12-180-K/21-сон қарорига
5-илова

Shahar mahalliy byudjetining 2022 yilgi yuqori byudjetdan ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorlari

ming so‘mda

T/r	Shahar va tumanlar	Tartibga soluvchi transfert miqdori
1	Urganch shahri	71 560 773,0

Халқ депутатлари Урганч шаҳар
Кенгашининг
2021 йил 31 декабрдаги
VI-48-58-12-180-K/21-сон қарорига
6-илова

Urganch shahar mahalliy byudjetida yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdori

ming so‘mda

T/r	Shahar va tumanlar	Miqdor
1	Urganch shahri	860 000,0

Халқ депутатлари Урганч шаҳар
Кенгашининг
2021 йил 31 декабрдаги
VI-48-58-12-180-K/21-сон қарорига
7-илова

Yuridik shaxslar bo‘yicha qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer maydonlari uchun hududlar kesimida mutlaq miqdorga 1 gektarga belgilangan bazaviy soliq stavkalariga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar

T/r	Hudud nomi	Koeffitsient (0,5 dan 2,0 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2022 yil uchun 1 (bir) gektar uchun so‘mda
Urganch shahar		1,15	33 350 000
1	Mustakillik MFY	1,15	33 350 000
2	Feruz MFY	1,15	33 350 000
3	Ma’rifatchi MFY	1,15	33 350 000
4	Yukori-bog MFY	1,15	33 350 000
5	Al-Xorazmiy MFY	1,15	33 350 000
6	Besh-bergan MFY	1,15	33 350 000
7	Shodlik MFY	1,15	33 350 000
8	Gulshan MFY	1,15	33 350 000
9	Gulzor MFY	1,15	33 350 000
10	Navbaxor MFY	1,15	33 350 000
11	Avesto MFY	1,15	33 350 000
12	Mash’al MFY	1,15	33 350 000
13	Yangi-xayot MFY	1,15	33 350 000
14	Ashxabad MFY	1,15	33 350 000
15	Xamjixatlik MFY	1,15	33 350 000
16	Yangi obod MFY	1,15	33 350 000
17	Saxovat MFY	1,15	33 350 000
18	Jambul MFY	1,15	33 350 000
19	Bobur MFY	1,15	33 350 000

20	Obi-xayot MFY	1,15	33 350 000
21	Navruz MFY	1,15	33 350 000
22	Istiklol MFY	1,15	33 350 000
23	Kuxna-kal’a MFY	1,15	33 350 000
24	Toza bog‘ MFY	1,15	33 350 000
25	Umid MFY	1,15	33 350 000
26	Jingovuz MFY	1,15	33 350 000
27	Dustlik MFY	1,15	33 350 000
28	Temir-yulchi MFY	1,15	33 350 000
29	Baynalminalchi MFY	1,15	33 350 000
30	Olimpiya MFY	1,15	33 350 000
31	Gulchilar MFY	1,15	33 350 000
32	Buston MFY	1,15	33 350 000
33	Kamolot MFY	1,15	33 350 000
34	Ziyokorlar MFY	1,15	33 350 000
35	Binokor MFY	1,15	33 350 000
36	Olma bog‘ MFY	1,15	33 350 000
37	Jaloliddin Manguberdi MFY	1,15	33 350 000
38	"Islomobod" MFY	1,15	33 350 000

Халқ депутатлари Урганч шаҳар
Кенгашининг
2021 йил 31 декабрдаги
VI-48-58-12-180-K/21-сон қарорига
8-илова

Jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan va qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan tashqari) yer maydonlari uchun hududlar kesimida **mutlaq miqdoriga 1 kv.m uchun** belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar

T/r	**Hudud nomi**	**Koeffitsient (0,5 dan 2,0 gacha)**	**Yer solig‘i stavkasi 2022 yil uchun 1 (bir) kv.m uchun so‘mda**
Urganch shahar		1,15	299
1	Mustakillik MFY	1,15	299
2	Feruz MFY	1,15	299
3	Ma’rifatchi MFY	1,15	299
4	Yukori-bog MFY	1,15	299
5	Al-Xorazmiy MFY	1,15	299
6	Besh-bergan MFY	1,15	299
7	Shodlik MFY	1,15	299
8	Gulshan MFY	1,15	299
9	Gulzor MFY	1,15	299
10	Navbaxor MFY	1,15	299
11	Avesto MFY	1,15	299
12	Mash’al MFY	1,15	299
13	Yangi-xayot MFY	1,15	299
14	Ashxabad MFY	1,15	299
15	Xamjixatlik MFY	1,15	299
16	Yangi obod MFY	1,15	299

17	Saxovat MFY	1,15	299
18	Jambul MFY	1,15	299
19	Bobur MFY	1,15	299
20	Obi-xayot MFY	1,15	299
21	Navruz MFY	1,15	299
22	Istiklol MFY	1,15	299
23	Kuxna-kal’a MFY	1,15	299
24	Toza bog‘ MFY	1,15	299
25	Umid MFY	1,15	299
26	Jingovuz MFY	1,15	299
27	Dustlik MFY	1,15	299
28	Temir-yulchi MFY	1,15	299
29	Baynalminalchi MFY	1,15	299
30	Olimpiya MFY	1,15	299
31	Gulchilar MFY	1,15	299
32	Buston MFY	1,15	299
33	Kamolot MFY	1,15	299
34	Ziyokorlar MFY	1,15	299
35	Binokor MFY	1,15	299
36	Olma bog‘ MFY	1,15	299
37	Jaloliddin Manguberdi MFY	1,15	299
38	"Islomobod" MFY	1,15	299

Халқ депутатлари Урганч шаҳар
Кенгашининг
2021 йил 31 декабрдаги
VI-48-58-12-180-K/21-сон қарорига
9-илова

9-илова

Урганч шаҳар юридик шахсларнинг мол-мулкига солинадиган солиқ бўйича 2022 йил учун белгиланган минимал МИҚДОРЛАР

Т/Р	**Шаҳар, туманлар номи**	**Юридик шахсларнинг бино ва ншоотларининг 1 кв.метр учун мутлоқ миқдор, сўмда**	**Коэффициент** ***(0,5 гача камайтирувчи коэффицент)***	**Юридик шахсларнинг бино ва иншоотларининг 1 кв.метр учун солиқ базаси, сўмда**
1	Урганч шаҳар	1 000 000	1,0	1 000 000